

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIMI  
TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA**

Kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi to‘g‘risidagi Nizom **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **2-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2012-yil 6-iyul,  
200-son

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 6-iyuldagi 200-son qaroriga  
1-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi to‘g‘risida  
NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limini tashkil etish va amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Umumiy o‘rta ta‘lim negizida o‘qitish muddati uch yil bo‘lgan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi uzluksiz ta‘lim tizimining majburiy mustaqil turi hisoblanadi va “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuniga** muvofiq amalga oshiriladi.

2. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari tizimi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o‘quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta‘minlaydigan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridan iborat bo‘ladi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasiga** va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, ushbu Nizomga, shuningdek o‘z ustavlariga amal qiladi.

3. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari yuridik shaxslar hisoblanadi, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi, qayta tashkil etiladi va tugatiladi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari o‘z ustaviga, mustaqil balansiga, Moliya vazirligining G‘aznachiligida va uning hududiy bo‘linmalarida shaxsiy hisob raqamlariga (davlat ta‘lim muassasalari uchun), hisob-kitob raqamlariga, o‘z nomi ko‘rsatilgan muhrga, burchakli shtampga va blankalarga ega bo‘ladi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasasining ustavi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

4. Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq davlat o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining muassislari bo‘lishi mumkin.

Nodavlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy va nodavlat yuridik shaxslar tomonidan tashkil etiladi.

## **II. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi va vazifalari**

5. O'quvchilarni soha bo'yicha puxta, tabaqalashtirilgan holda o'qitish, ularning intellektual kamol topishini va ularning qobiliyatlari va kasblarga moyilligiga muvofiq ravishda tanlagan mutaxassisliklarni egallashini ta'minlash o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi hisoblanadi

6. Quyidagilar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining vazifalari hisoblanadi:

umumta'lim maktablari 9-sinflarini bitiruvchilarning sifatli majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidan foydalanishini ta'minlash;

shaxsning izchil intellektual, madaniy va ma'naviy-axloqiy kamol topishga bo'lgan ehtiyojini qondirish;

yoshlarni milliy g'oyalarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mustaqil dunyoqarashga va fikrlashga ega bo'lgan ma'naviy boy va har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish;

o'quvchilarning ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirishi yoki tanlagan kasb va ixtisoslikka muvofiq mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi uchun ularning yuqori darajada sifatli bilimlar olishini va kasbiy tayyorgarligini ta'minlaydigan davlat ta'lim standartlari doirasida umumta'lim va kasb-hunar dasturlarini amalga oshirish;

iqtisodiyot tarmoqlarini, ma'muriy-ijtimoiy sohani zarur yo'nalishdagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga ega bo'lgan kadrlar bilan eng yuqori darajada ta'minlash.

## **III. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini shakllantirish va faoliyat ko'rsatishining umumiy shart-sharoitlari**

7. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari hududlarning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik sharoitlarini, mehnat bozorining tegishli soha mutaxassislariga bo'lgan talabini, ularni o'quvchilarning asosiy yashash joylariga mumkin qadar yaqin joylashtirilishini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Boshqa joylardan kelgan o'quvchilar uchun, imkoniyatga qarab, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari huzurida ularni oilasidan alohida yashashi uchun yetarli uy-joy-maishiy sharoitlar bilan ta'minlaydigan yotoqxonalar tashkil etiladi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'qitish uch yil muddat bilan, kunduzgi shaklda amalga oshiriladi.

8. Akademik litsey davlat ta'lim standartiga muvofiq o'rta maxsus ma'lumot beradi, gumanitar va tabiiy-ilmiy yo'nalishlar bo'yicha intensiv intellektual rivojlanishni, soha bo'yicha puxta tabaqalashtirilgan o'qitishni ta'minlaydi.

Akademik litseylarda o'qitish oliy ta'lim muassasalari bakalavriati talabalarining salohiyatli kontingentini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Akademik litseylarga o'qishga kirishda o'quvchilar o'z imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda gumanitar yoki tabiiy-ilmiy ta'lim fanlari va kurslarini puxta o'zlashtirish yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlaydilar.

O'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limning uzviyligini yaxshilash maqsadida davlat akademik litseylari o'zaro munosabatlari ularning ustavlariga va qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadigan sohaga oid oliy ta'lim muassasalariga birkiriladi.

Soha bo'yicha puxta, tabaqalashtirilgan holda o'qitish uchun tegishli oliy ta'lim muassasalari akademik litsey ustidan patronatni amalga oshirishi mumkin.

9. Kasb-hunar kolleji Davlat ta'lim standarti doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi, o'quvchilarning kasbiy moyilliklari, mahorati va ko'nikmalarining puxta rivojlanishini, tanlangan kasblar bo'yicha mutaxassisliklarning keng ko'lamiga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Kasb-hunar kollejlari mutaxassislar tayyorlashning turi va sohasidan kelib chiqqan holda klassifikatsiya qilinadi.

Kasb-hunar kollejlari kasbiy tayyorgarlik yo'nalishlari respublikani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbollari hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, O'zbekiston Respublikasi Oliy

va o'rtta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan O'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limining tayyorlash, kasblar va mutaxassisliklar yo'nalishlari klassifikatoriga muvofiq belgilanadi.

Kasb-hunar kollejlari mutaxassislar tayyorlash soni va kasb-hunar kollejlari sohasini qayta o'zgartirish imkoniyati mehnat bozorining u yoki bu soha kadrlariga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Iqtisodiyot tarmoqlari va ma'muriy-ijtimoiy sohaning kadrlarga bo'lgan talabini eng yuqori darajada ta'minlashni hisobga olgan holda, zarur soha va ta'lim darajasi bo'yicha kadrlar tayyorlashni tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

Kasb-hunar kollejida ta'lim va kasb-hunar dasturlarini bajarish korxonalar va kasb-hunar kollejlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik asosida amalga oshiriladi.

Kasb-hunar kollejlari uchun mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan tarmoq vazirliklari, idoralari, iqtisodiy barqaror korxonalar orasidan vasiylar aniqlanadi, ular ish beruvchilar bilan sheriklik munosabatlari rivojlantirilishini ta'minlaydilar, o'quvchilarning korxonalarda, muassasalarda ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etishga, keyinchalik bitiruvchilarni ishga joylashtirishga, shuningdek kasb-hunar kollejlarning moddiy-texnik va resurs bazasini mustahkamlashga, o'quvchilar va o'qituvchilarni ijtimoiy himoya qilishga ko'maklashadilar.

Imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarni o'qishda va kasb-hunarni egallashda teng imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlash uchun imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari tashkil etiladi.

Mamlakatimizda sportning olimpiada va milliy turlari bo'yicha terma jamoalarni shakllantirish uchun sport va sport rezervi sohasida yuqori malakali o'rtta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash maqsadida olimpiada rezervi kollejlari tashkil etiladi.

Rivojlangan o'quv-metodik va moddiy-texnik bazaga, yuqori malakali o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi masterlariga ega bo'lgan yetakchi kasb-hunar kollejlari negizida uzoq joylardagi sohaga oid kasb-hunar kollejlari orasidan filiallarga ega bo'lgan birlashgan (bazaviy) kasb-hunar kollejlari tashkil etiladi.

Birlashgan kollejlarning filiallari, qoidaga ko'ra, ma'muriy markazlar va yirik shaharlardan uzoqda joylashgan, mutaxassislar tayyorlashning soha yo'nalishi bo'yicha o'xshash birlashgan kollejga ega bo'lgan kasb-hunar kollejlari orasidan tanlanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'quvchilarni soha bo'yicha puxta, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan holda o'qitish, ularning intellektual kamol topishini, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishini ta'minlash maqsadida harbiy akademik litseylar va oliy harbiy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni tayyorlash bo'yicha qo'shimcha vazifalar yuklangan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning maxsus guruhlarini tashkil etiladi.

*(9-bandning o'n birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-iyuldagi 498-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 28-son, 667-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari, olimpiada rezervi kollejlari, birlashgan (bazaviy) kasb-hunar kollejlari va ularning filiallarini, harbiy akademik litseylarni va oliy harbiy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni tayyorlash bo'yicha qo'shimcha vazifalar yuklangan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning maxsus guruhlarini tashkil etish va ularning faoliyatini amalga oshirish shart-sharoitlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlari bilan belgilanadi.

*(9-bandning o'n ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-iyuldagi 498-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 28-son, 667-modda)*

10. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning o'quvchilari va xodimlariga ijtimoiy kafolatlar, qo'llab-quvvatlash va imtiyozlar qonun hujjatlari, shuningdek o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi ustavi bilan belgilanadi.

11. O'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini litsenziyalash va akkreditatsiya qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

#### **IV. O'quvchilarni akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari qabul qilish**

12. Shaharlar va tumanlar bo'yicha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga o'qishga qabul qilishning umumiy parametrlari har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan, umumta'lim maktablari 9-sinflari bitiruvchilarining akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'qitish bilan to'liq qamrab olinishini hisobga olgan holda tasdiqlanadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha o'qishga qabul qilish parametrlari O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilanadi.

13. O'quvchilarni o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga qabul qilish 9 yillik umumiy o'rta ta'lim negizida, umumta'lim maktabini tamomlaganlik to'g'risida davlat namunasidagi shahodatnomalar asosida, ularning akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o'qish yo'nalishini ixtiyoriy tanlashini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-iyundagi 109-son **qarori** bilan tasdiqlangan Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga qabul qilish va rasmiylashtirishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

#### **V. O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni**

14. O'quvchilar, o'qituvchilar va muhandis-pedagoglari tarkibi, ish beruvchilar, o'quvchilarning ota-onalari (yoki ularning o'rmini bosuvchilar) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ta'lim jarayonining qatnashchilari hisoblanadilar.

15. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida:

umumta'lim va kasb-hunar dasturlarini bajarish uch yil o'qitish mobaynida amalga oshiriladi;

o'quvchilar o'qitish kurslari bo'yicha guruhlariga, o'qitish yo'nalishi bo'yicha esa — bo'limlarga birlashtiriladi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

guruhlarni to'ldirish, qoidaga ko'ra, akademik litseylarda 26 nafargacha, kasb-hunar kollejlari 30 nafargacha o'quvchilar doirasida belgilanadi, o'quvchilarning o'quv yuklamasi va boshqa o'quv-tarbiya jarayonini ratsionalizatsiyalash masalalari O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartiga muvofiq aniqlanadi;

*(15-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 1 maydagi 251-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 18-son, 324-modda)*

o'quv yili 2 semestrda bo'linadi, o'quvchilar uchun har bir o'quv yilida jami kamida 10 hafta va ko'pi bilan 12 hafta davom etadigan ta'tillar belgilanadi.

16. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlari Davlat ta'lim standarti bilan belgilanadigan quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

umumta'lim dasturlari — akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun;

o'qitish fanlari va yo'nalishlari bo'yicha chuqurlashtirilgan, sohaga oid ta'lim dasturlari va ixtisoslashtirilgan dasturlar — akademik litseylar uchun;

o'qitish yo'nalishlari bo'yicha umumtexnika kasb-hunar dasturlari va maxsus dasturlar — kasb-hunar kollejlari uchun.

Imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi maxsus dasturlari ishlab chiqiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

17. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish quyidagi usullarda olib boriladi:

ichki nazorat — o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi tomonidan amalga oshiriladi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan reyting nazorat tizimi haqidagi nizom asosida o'tkaziladi.

tashqi nazorat — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi;

davlat-jamoat nazorati — ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi va u bilan kelishilgan holda nodavlat notijorat tashkilotlari va kadrlarga talabgorlar tomonidan amalga oshiriladi;

yakuniy davlat attestatsiyasi — o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

*(17-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 14-son, 230-modda)*

18. O‘qitish kursini tamomlash yakunlari bo‘yicha, reyting nazorati va attestatsiyasi natijalari asosida o‘quvchini navbatdagi kursga o‘tkazish yoki o‘qitishning takroriy yiliga qoldirish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. O‘quvchini kursdan-kursga o‘tkazish yoki o‘qitishning takroriy yiliga qoldirish o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasi direktorining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi. Kursdan-kursga shartli ravishda o‘tkazishlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

19. O‘quvchilarni o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasining bir tipidan boshqasiga o‘tkazish, o‘qishga tiklash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

20. O‘quvchilarni o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitish kasb-hunar ta’limining fan va ishlab chiqarish bilan o‘zaro hamkorligi asosida quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

*Oldingi tahrirga qarang.*

kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining korxonalarda tizimli asosda ishlab chiqarish amaliyotidan o‘tishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek ish beruvchilarni o‘quv jarayoniga, akademik litseylar ta’lim yo‘nalishlari va kasb-hunar kollejlari tayyorlov yo‘nalishlari bo‘yicha malaka talablarini va o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqishga jalb etish;

*(20-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 14-son, 230-modda)*

ilmiy-tadqiqotlar natijalarini yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish uchun eksperimental maydonchalar tashkil etish orqali o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy etish;

o‘qitishni tashkilotlarda ishlab chiqarish mehnati bilan qo‘shib olib borish, kasb-hunar kollejlarda qo‘shma ishlab chiqarishlar tashkil etish, o‘quvchilarni ishlab chiqarish amaliyotidan o‘tish uchun bazalar bilan ta’minlash asosida malakali kadrlarni tayyorlash va tarbiyalashning dual tizimini rivojlantirish;

alohida mutaxassislarni, o‘quv guruhlarini maqsadli tayyorlashni moliyalashtirishda, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining moddiy-texnika va resurs bazasini mustahkamlashda, shuningdek ta’lim muassasalarini zamonaviy anjomlar, apparaturalar va uskunalar bilan jihozlashda, akademik litseylar o‘quvchilariga amaliy bilimlar olishi uchun oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining o‘quv-laboratoriya bazasini berishda korxonalar, tashkilotlar va boshqa ish beruvchilarning ixtiyoriy (yoki tuzilgan shartnomalar asosida) qatnashishi;

o‘quvchilarni tovar mahsulotlar ishlab chiqargan holda mehnat faoliyatiga va ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish;

o‘quvchilarga kelgusida ulardan ishlab chiqarishda va bitiruvchilar-ishlab chiquvchilarning joylarda taqdim etilgan loyihalarni amalga oshirishda foydalanishi ehtimoli uchun diplom ishlanmalari mavzulari ro‘yxatini berishda korxonalar, tashkilotlar va boshqa ish beruvchilarning qatnashishi;

bevosita ishlab chiqarishda muhandis-pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda yuqori malakali mutaxassislar – ishlab chiqaruvchilarning o‘quvchilarni o‘quv-kasbiy tayyorlashda qatnashishi.

21. Davlat va nodavlat o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari davlat ta’lim standartiga muvofiq qo‘shimcha ta’lim xizmatlari olish, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasini boshqarishda uning ustavida belgilangan shaklda qatnashish huquqiga egadirlar.

22. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilariga:

Davlat ta’lim standarti talablariga muvofiq:



akademik litseylar uchun – ta’lim yo‘nalishi ixtisosligi bo‘yicha fanlar;

kasb-hunar kollejlari uchun – o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi kasblari va mutaxassisliklar tayyorlash yo‘nalishlari klassifikatorlariga muvofiq malaka darajasi, egallangan kasb va unga qo‘shimcha mutaxassisliklar ko‘rsatilgan holda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi to‘g‘risida davlat namunasidagi diplom beriladi.

Diplomlarga o‘zlashtirilgan umumta’lim va maxsus (kasbiy) fanlar (kurslar), soatlar hajmi va ular bo‘yicha baholar (reyting), shuningdek bitiruvchining umumiy reytingi va yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari ko‘rsatilgan holda kiritma varaqcha ilova qilinadi.

23. Davlat attestatsiyasidan o‘tmagan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilariga ta’lim darajasiga va takroriy davlat attestatsiyasiga 3 yil mobaynida talab qo‘yilmaydigan ishga joylashish huquqini beradigan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasini tamomlaganlik to‘g‘risidagi ma’lumotnoma beriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

24. Akademik litsey va kasb-hunar kollejini tamomlaganlik to‘g‘risidagi diplom oliy ta’lim muassasasiga kirish huquqini beradi.

Akademik litsey bitiruvchilariga diplom bilan birgalikda maxsus chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan mutaxassislik bo‘yicha davlat namunasidagi sertifikat beriladi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejini tamomlaganlik to‘g‘risidagi diplom (sertifikat) egallagan bilimlarini mehnat faoliyatida amalga oshirish huquqini beradi.

*(24-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 1 maydagi 251-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 18-son, 324-modda)*

25. Kasb-hunar kolleji manfaatdor vazirliklar va idoralar, ish beruvchilar, mehnat va aholi bandligi organlari bilan hamkorlikda pulli-kontrakt asosida:

a) o‘rta maxsus, kasb-hunar ma’lumotiga ega bo‘lmagan shaxslarni umumta’lim maktablarining 11-sinflari bitiruvchilari kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishlari uchun o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlari bo‘yicha;

b) ikkinchi mutaxassislikni olishni xohlovchi o‘rta maxsus, kasb-hunar ma’lumotli shaxslarni o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlari bo‘yicha o‘qitishi mumkin (bo‘sh o‘quv maydonlari, zarur resurs ta’minoti va o‘qituvchi kadrlar mavjud bo‘lgan taqdirda).

## **VI. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirishning tashkiliy tamoyillari**

26. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilarining ish bilan bandligiga ko‘maklashish kasb-hunar kollejlari, bitiruvchilar va ularning ota-onalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, mehnat va aholi bandligi organlari, vasiylar, tarmoq vazirliklari, idoralari, korxonalarining birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan amalga oshiriladi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilarining ish bilan bandligiga ko‘maklashish:

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari, o‘quvchilar va ish beruvchilar o‘rtasida belgilangan tartibda uch tomonlama shartnomalar tuzish;

yangi ish o‘rinlari yaratish ishlarini tashkil etishda shahar ahamiyatiga ega bo‘lgan va boshqa yirik korxonalar ishtirokida kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari uchun ish o‘rinlarining kasbiy tarkibini aniqlash;

ish beruvchilarni va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini jalb etgan holda ish o‘rinlarining muntazam yarmarkalarini o‘tkazish;

bitiruvchilarga tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda ko‘maklashish maqsadida ular uchun O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining hududiy organlari ishtirokida biznes-loyihalarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

bitiruvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va o‘zini o‘zi ish bilan band etish darajasini oshirish maqsadida imtiyozli kreditlar berish;

bitiruvchilardan u yoki bu yo‘nalishda foydalanish bo‘yicha imtihon oluvchi professional komissiyalar, vasiylar, boshqa ish beruvchilarning tavsiyalarini berish;

bitiruvchilarni ishga joylashtirishga yo'naltirilgan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishga doir tadbirlarni bajarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

27. Kasb-hunar kollejlari, o'quvchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi uch tomonlama shartnomalarni tuzish, qayta tuzish o'quvchilar ta'lim olishining butun davri jarayonida, shuningdek oraliq va davlat attestatsiyasi yakunlari bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

28. Bitiruvchilarni ishga joylashtirishga ko'maklashish oliy ta'lim muassasalariga kirgan, mamlakat tashqarisiga chiqib ketgan, mehnatga layoqatsizlik to'g'risida tibbiy xulosaga ega bo'lgan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa uzrli sabablar bo'yicha kontingent istisno etilgan holda har bir kasb-hunar kolleji, har bir tuman va shahar, aniq egallangan kasb bo'yicha amalga oshiriladi.

29. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish to'g'risidagi axborot qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari tomonidan statistika organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga taqdim etiladi.

## **VII. Pedagog kadrlar**

30. Belgilangan talablarga muvofiq tegishli oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladilar. Sudning qarori bilan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ishlashi taqiqlangan shaxslarning ularda ishlashiga yo'l qo'yilmaydi.

31. Professor-o'qituvchi va muhandis-pedagoglar tarkibini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga ishga qabul qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

32. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'qituvchilar va muhandis-pedagoglar tarkibining o'quv-pedagogik yuklamasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

33. O'qituvchilarning (o'quv fanlari va soatlar bo'yicha) boshqa o'qituvchilar o'rnida ishlashi tartibi tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

34. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'qituvchilar va muhandis-pedagoglar tarkibini davriy attestatsiyadan o'tkazish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

35. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari ma'muriyati o'qituvchilar va muhandislar-pedagoglarning pedagogik, kasbiy va psixologik mahoratini doimiy takomillashtirish, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun javob beradi.

36. O'qituvchilar va muhandis-pedagoglar tarkibini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda va tartibda amalga oshiriladi.

## **VIII. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish**

37. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga tashkiliy va o'quv-metodik rahbarlik qilish, davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish, o'quv, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini bixillashtirish, pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan amalga oshiriladi.

Tarmoq vazirliklari, idoralari va boshqa tashkilotlarning kasb-hunar kollejlari ikki tomonlama bo'ysunishda bo'ladilar.

Tegishli vazirliklar, idoralar, tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari moddiy va moliyaviy ta'minlaydilar, o'quvchilarda kasbiy va amaliy ko'nikmalarni shakllantiradilar, bitiruvchilarning ishlab chiqarish amaliyotidan o'tishi uchun bazalar bilan ta'minlash, ularni ishga joylashtirish va tayyorlashning egallangan ixtisosligi bo'yicha ular mehnatidan foydalanish masalalarini hal etadilar.

38. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor boshchilik qiladi. Direktor o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining faoliyati natijalari uchun shaxsan javob beradi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Direktor har chorakda kamida bir marta o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotni tegishli fuqarolar yig'iniga taqdim etadi.

*(38-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-fevraldagi 134-sonli qaroriga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.02.2018-y., 09/18/134/0809-son)*

39. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi direktori huzurida kollegial organ hisoblangan pedagogik kengashlar tashkil etiladi.

Pedagogik kengashning funksiyalari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi ustavida belgilanadi.

40. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida tarmoq vazirliklari, idoralari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, qonun hujjatlari va ustav asosida ish ko'ruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini o'z ichiga oladigan vasiylik kengashlari tuziladi.

## **IX. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining mol-mulki va moliya-xo'jalik faoliyati**

41. Davlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi o'zining moliya-xo'jalik faoliyatini budjet mablag'lari va budjetdan tashqari mablag'lar doirasida amalga oshiradi. Davlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini moliyalashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda:

O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari;

tasarrufida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari mavjud bo'lgan vazirliklar, idoralar va tashkilotlarning mablag'lari;

pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatishdan, ilmiy-pedagogik, ishlab chiqarish faoliyatidan va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining ustavda qayd etilgan vazifalariga muvofiq bo'lgan va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatning boshqa turlaridan olingan daromadlar;

xayriya ehsonlari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

42. Nodavlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyati:

muassislarning mablag'lari;

nodavlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasida bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun to'lanadigan to'lov;

yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy ehsonlari va maqsadli badallari, vasiylarning mablag'lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

Nodavlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasida bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun ota-onalar yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslar tomonidan to'lanadigan to'lov miqdori shartnomada belgilanadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lanadi.

43. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi xodimlarining ish haqi, sifatli faoliyat uchun ularni rag'batlantirish miqdori va ish haqiga boshqa qo'shimcha haqlar qonun hujjatlariga va ustavlarga muvofiq belgilanadi.

44. Davlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining mol-mulki uning tezkor boshqaruvida bo'ladi va ulardan faqat ustavda qayd etilgan vazifalarni hal etish uchun foydalaniladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining ustaxonalari, laboratoriyalari va boshqa obyektlarining jihozlanganligi jihozlashning namunaviy normativlari bilan belgilanadi.

Davlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining obyektlari va mol-mulkidan o'quv jarayoni davrida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining mol-mulkidan samarali va maqsadga yo'naltirilgan tarzda foydalanilishi uchun qonun hujjatlariga muvofiq o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi rahbari to'liq javob beradi.

45. Nodavlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini moddiy-texnik ta'minlash muassislar tomonidan, davlat ta'lim muassasalari uchun O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi namunaviy normativlardan past bo'lmagan miqdorlarda amalga oshiriladi.

46. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi moliya va statistika hisobotini yuritadi hamda uni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tegishli organlarga taqdim etadi.

47. Davlat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish qonun hujjatlariga muvofiq vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.



## **X. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilarining o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishi**

48. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilarining o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlardan tashqari, majburiy hisoblanadi.

49. O‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishi va o‘qituvchilarga yuklamani samarali taqsimlashni nazorat qilish uchun bir yilda kamida ikki marta (o‘quv semestrlari tugallangandan keyin) davriy monitoring o‘tkaziladi.

50. Monitoring akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari joylashgan joy bo‘yicha tashkil etiladigan Idoralararo maxsus guruhlar tomonidan (keyingi o‘rinlarda maxsus guruh deb ataladi) amalga oshiriladi, ularning tarkibi va rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi bilan kelishgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

51. O‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishi monitoringi:

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari tomonidan har oyda 5-kundan kechikmay umumlashtirish va tahlil qilish uchun tegishli o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi hududiy boshqarmasiga taqdim etiladigan axborot;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi hududiy boshqarmalari tomonidan har oying 10-kunidan kechikmay hisobot davri uchun maxsus guruhlariga taqdim etiladigan umumlashtirilgan axborot;

maxsus guruhlar tomonidan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida yoki alohida olingan o‘quv guruhlarida o‘tkaziladigan rejali va tanlab tekshirishlar asosida olib boriladi.

Taqdim etiladigan axborotning ishonchliligi uchun javobgarlik tegishli o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasi direktoriga yuklanadi.

52. Maxsus guruh tomonidan belgilangan jadval bo‘yicha o‘tkaziladigan tekshirishlar yakunlariga ko‘ra o‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishi darajasi 90 foizdan past ekanligi aniqlangan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida:

keyingi 3 — 5 kun mobaynida davomatning qo‘shimcha tekshirishlari o‘tkaziladi;

o‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishi reytd tekshirishlari yo‘li bilan bir yilda kamida ikki marta qo‘shimcha ravishda o‘rganiladi, o‘rganish asosida o‘quvchilarning mashg‘ulotlarga qatnashmasligi sabablari o‘rganiladi.

O‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishi darajasi 70 foizdan pastni tashkil etadigan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida maxsus guruh tomonidan doimiy asosda davomat monitoringi amalga oshiriladi.

53. O‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishi monitoringini amalga oshirish maqsadida har bir o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi tomonidan belgilanadigan shakl bo‘yicha O‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishi monitoringi daftari (keyingi o‘rinlarda Monitoring daftari deb ataladi) yuritiladi.

Monitoring daftari qat’iy hisobot beriladigan hujjat hisoblanadi. Monitoring daftarida aks ettirilgan axborotning ishonchliligi uchun tegishli maxsus guruh rahbari mas’ul hisoblanadi.

Monitoring daftariga rejali va tanlab tekshirishlar davomida maxsus guruh tomonidan aniqlangan ma’lumotlar, shu jumladan o‘tkazilgan rejali yoki tanlab tekshirishlar sanasi va vaqti, o‘quv guruhi raqami, o‘quv fanining nomi, o‘qituvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, ro‘yxat bo‘yicha o‘quvchilar soni, mashg‘ulotda hozir bo‘lgan o‘quvchilarning amalda mavjudligi, sabablari ko‘rsatilgan holda mashg‘ulotda qatnashmaganlar ro‘yxati kiritiladi. Aniqlangan ma’lumotlar maxsus guruhning rahbarlari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasining direktori imzolari bilan tasdiqlanadi.

54. Monitoring yakunlari bo‘yicha:

maxsus guruhlar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi hududiy boshqarmalari bilan birgalikda o‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishi darajasini oshirish, kam sonli o‘quv guruhlarini birlashtirish, o‘qituvchilarning yuklamasini o‘zgartirish hisobiga budjet mablag‘laridan foydalanishni maqbullashtirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalarni tayyorlaydilar hamda ko‘rib chiqish

uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markaziga kiritadilar;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi:

o‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashmasligi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, sabablarining oldini oluvchi shart-sharoitlar yaratish;

o‘qituvchilarning o‘quv yuklamasini (tarifikatsiyani) tegishli ravishda qisqartirgan holda kam sonli o‘quv guruhlarini birlashtirish;

o‘qituvchilarning o‘quv yuklamasi (tarifikatsiyasi) qisqarishi munosabati bilan tegishli o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining xarajatlar smetasiga o‘zgartirishlar kiritish tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shma qaror qabul qilinadi.

## **XI. Yakunlovchi qoidalar**

55. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq ta‘lim masalalari bo‘yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirish huquqiga ega.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xorijiy fuqarolarni o‘qitishi mumkin.

56. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarini qayta tashkil etish yoki tugatish, qoidaga ko‘ra, o‘quv yili tamom bo‘lgandan keyin amalga oshiriladi, bunda tegishli o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi hududiy boshqarmasiga o‘quvchilarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan kelishilgan holda o‘quvchilar boshqa o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalariga o‘tkazilganligi uchun javobgarlik yuklanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 6-iyuldagi 200-son qaroriga  
2-ILOVA

## **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanadigan qarorlari**

### **RO‘YXATI**

1. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1998-yil 13-maydagi 204-son qarorining **2-bandi** (O‘zbekiston Respublikasi QT, 1998-y., 5-son, 18-modda) va qarorga **1-ilova**.

2. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2007-yil 7-iyuldagi 139-son **qarori** (Vazirlar Mahkamasining “Imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari faoliyati to‘g‘risida” 2007-yil 17-maydagi 100-son **qarori**).

3. Vazirlar Mahkamasining “Harbiy akademik litseylar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2010-yil 17-fevraldagi 21-son qarorining (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2010-y., 2-son, 7-modda) **7-bandi** va qarorga **6-ilova**.

4. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 2011-yil 20-iyundagi 183-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2011-y., 6-son, 55-modda) ilovaning **5-bandi** (Vazirlar Mahkamasining “Maktabdan tashqari ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2011-yil 28-fevraldagi 50-son hamda “Xalq ta‘limi hududiy organlari tuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida” 2011-yil 1-martdagi 52-son qarorlari).

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 28-son, 315-modda; 2017-y., 14-son, 230-modda, 18-son, 324-modda, 28-son, 667-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.02.2018-y., 09/18/134/0809-son)*